

Iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar belgilandi



Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 14-mart kuni iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, davlat korxonalarini transformatsiya qilish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Ma'lumki, mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, raqobat muhitini yaxshilash maqsadida davlat korxonalarini transformatsiya qilinmoqda. Yig'ilishda bu boradagi ishlarni jadallashtirish va davlat aktivlarini xususiylashtirish masalalari muhokama qilindi.

Jumladan, 25 ta davlat korxonasida operatsion samaradorlikni oshirishda sustkashlikka yo'l qo'yilgani ko'rsatib o'tildi. Hozirgi zamon talabiga javob bermaydigan, zarar bilan ishlayotgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash amaliyotidan butunlay voz kechish kerakligi aytili.

Transport sohasidagi ishlar holati ham ko'rib chiqildi. Tranzit yo'lovchilar oqimini oshirish, charter parvozlarga ruxsat berish tizimini soddalashtirish, mahalliy aeroportlarni mintaqaviy tranzit xabiga aylantirish choralari belgilandi.

"O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi erkin raqobat sharoitida ishlash uchun zamonaviy yondashuvlarni joriy qilishi, aviachiptalar narxining oshishiga yo'l qo'ymaslik zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, yig'ilishda iqtisodiyotda joriy yilning birinchi choragi yakunida kutilayotgan natijalar tahlil qilindi. Yangi korxonalarni foydalanishga topshirib, ish o'rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Hokimlar va tarmoq rahbarlariga iqtisodiy asoslanmagan loyihalarning ilgari surilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ko'rsatma berildi. Mutasaddi idoralarga ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish, investitsiya loyihalarining bozor iqtisodiyoti talabiga javob berishini o'rganish vazifasi qo'yildi.

Eksport masalalari muhokama qilinar ekan, tashqi bozordagi bugungi vaziyatdan kelib chiqib, transport va

logistika masalalarini hal etish, eksport geografiasini kengaytirish, mahsulotlarni yangi bozorlarga chiqarish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Viloyat hokimlari oziq-ovqat xavfsizligini va bozorlarda narx-navo barqarorligini ta'minlash bo'yicha vazifalar ijrosi to'g'risida axborot berdi.

Jumladan, Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Mazkur hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi eksport yo'nalishlarini ochish va aholi bandligini ta'minlash chora-tadbirlari yuzasidan viloyat hokimlarining hisoboti eshitildi.





Manba